

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

“РЎЙХАТГА ОЛИНДИ”

№ ВМ – 343 – 5А340801 – 2.01

“1” ИЮЛЬ 2003 й.

“ТАСДИҚЛАНДИ”
Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус
таълим вазирлиги

“8” ИЮЛЬ 2003 й.

**XALQARO VALYU TA VA HISOB
OPERATSIYALARI
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 – “Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasidagi
5A340603 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” magistratura
mutaxassisligi uchun**

Tashkent – 2003

Tuzuvchilar: i.f.d., prof. Abdullaeva Sh.Z.
dots. Arzumanyan S.Yu.
Taqrizchilar: k.o'q. Ortiqov U.
dots. Toymuhamedov I.

"Xalqaro valyuta va hisob operatsiyalari" fani valyuta tizimining asosiy elementlarini nazariy va amaliy jihatdan o'rgatadi. Jumladan, tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini o'tkazish tartibiga asosiy urg'u berilgan, makroiqtisodiy barqarorlik va valyuta kursida o'zaro aloqadorlik, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta siyosati, eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish va boshqalar.

В предмете "Международные валютные и расчётные операции" изучаются теоритические и практические аспекты важнейших элементов валютной системы. В частности, основной акцент сделан на порядок осуществления валютных операций коммерческих банков, взаимосвязь валютного курса и макроэкономической стабильности, валютную политику Центрального банка Республики Узбекистан, а также финансирование экспортно-импортных операций.

In the course "International currency and banking operations" you can learn theory and practice of international economics. With them you will know the role of credit relations to integration of world economy.

This course has 3 parts : currency system and accounting operations; balans of payments and its accounting; international credits and payments.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

"Xalqaro valyuta va hisob operatsiyalari" fanini o'qitishning maqsadi va vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16 avgust 2001 yildagi 343-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan davlat ta'lim standartiga binoan "Xalqaro valyuta va hisob operatsiyalari" fani o'qitiladi.

Har qanday iqtisodiyot resurslarining cheklanganligi, hamda ehtiyojlarning cheksizligi bilan belgilanadi. Bunda, ushbu resurslardan eng samarali foydalanadigan va ehtiyojlarni maksimal darajada qondiradigan iqtisodiyot - eng samarali iqtisodiyot bo'lib hisoblanadi. Ushbu holat albatta, mamlakatning o'z iqtisodiy, siyosiy, tarixiy o'tmishidan kelib chiqqan holda, ma'lum sohalarida ixtisoslashganligini keltirib chiqaradi va o'zining ma'lum bir ehtiyojlarini boshqa bir mamlakat ishlab chiqargan moddiy ne'matlar hisobiga qondirishni taqozo etadi. Ushbu holat xalqaro tovar va xizmatlar, valyuta ayriboshlash jarayonlarini, kapitallar va kreditlar harakatini hamda ular bo'yicha hisob-kitoblarning xalqaro darajada olib borilishini shakllantiriladi. Ushbu munosabatlarni o'rganmasdan turib, har qanday mamlakat jahon iqtisodiy hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida jahon iqtisodiy munosabatlarida ishtirok etishi va o'zining mustaqil iqtisodiy siyosatini yurgizishi deyarli mumkin emas.

"Xalqaro valyuta va hisob operatsiyalari" fani bo'yicha magistrantlarning bilimiga, o'quviga va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar

Magistrant "Xalqaro valyuta va hisob operatsiyalari" fani bo'yicha quyidagilarni bilishi zarur:

- hozirgi zamon iqtisodiyotida valyuta operatsiyalarining tutgan o'rni va ahamiyati;
- hozirgi zamon tijorat banklari tomonidan amalga oshirilayotgan valyuta operatsiyalari va uning bankning faoliyatida tutgan o'rni va ahamiyati;
- hozirgi zamon Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan valyuta operatsiyalari va uning Markaziy bankning amalga oshirayotgan siyosatida tutgan o'rni va ahamiyati;
- hozirgi zamon tijorat banklari tomonidan amalga oshirilayotgan valyuta operatsiyalarining bankning moliyaviy ahvoriga ta'siri;
- valyuta xavf-xatarlari va ularni boshqarish usullari;
- valyuta kursi va unga ta'sir etuvchi omillar;
- xalqaro hisob-kitoblar va ularning asosiy shakllari;
- xalqaro hisob-kitoblarning hozirgi zamonda rivojlanish istiqbollari;
- xalqaro hisob-kitoblar operatsiyalarining zamonaviy tijorat banki operatsiyalarida tutgan o'rni va uning ahamiyati;
- va boshqa ushbu fanga aloqador bo'lgan masalalarni mustaqil o'rganish.

O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi

"Xalqaro valyuta va hisob operatsiyalari" kursi tashqi iqtisodiy faoliyat va valyuta operatsiyalari, "Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari", "Banklarda hisob va to'lov tizimi" kabi va boshqa maxsus fanlar bilan bevosita aloqadorlikda o'rganiladi.

Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar

"Xalqaro valyuta va hisob operatsiyalari" kursini o'qitishni ilg'or pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari bo'lmish:

- o'quv maqsadlari va vazifalari katalogi ishlab chiqish;
- o'quv maqsadlarini nazorat (test)topshiriqlariga ko'chirish;
- o'quv maqsadlariga erishish;
- rejalashtirilgan maqsadlarni bajarilishini baholash kabi nuqtai nazardan tashkil etish tavsiya etiladi.

Fanni o'qitishning semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar

"Xalqaro valyuta va hisob operatsiyalari" kursi "Kredit", "XVKM" mutaxassisliklarida o'quv yilining 2-semestrida, "Xalqaro moliya" mutaxassisligida 1-semestrda o'qitiladi. Bunda valyuta operatsiyalari va ularning turlari, tijorat va markaziy bankning valyuta operatsiyalari, valyuta xavf-xatarlari va ularni boshqarish usullari, valyuta kursi va unga ta'sir etuvchi omillar, xalqaro hisob-kitoblar va ularning asosiy shakllari chuqurroq o'rganiladi. O'quv jarayoni reyting tizimi asosida tashkil qilinadi. Shuningdek talabalarning bilimlarini nazorat qilish va baholashdagina emas, balki ularni shakllanishida qo'llaniladigan invariant testlar ishlab chiqish va ulardan foydalanish lozim.

Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha hajm

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida "Kredit" mutaxassisligi uchun mazkur kursga 152 soat hajmda vaqt ajratilgan. Ularning 76 soati ma'ruza, 76 soati amaliy mashg'ulotlar va 40 soati mustaqil ta'limdir.

2. FAN DASTURI

Fanning mazmuni

Xalqaro valyuta va hisob operatsiyalari fanining mohiyati, maqsadi va vazifalari

Fanning predmeti. Uning boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqadorligi. Fanning o'rganish uslublari va ahamiyati.

Valyuta operatsiyalari va ularni o'tkazish usullari

Xalqaro "Valyuta operatsiyalari"ning kontseptual usullari. *"Valyuta tasnifi"*. "Muddatli" operatsiyalar. Mukofot va chegirmalar. Ularni hisoblash tartibi.

Markaziy bankning valyuta operatsiyalari. Valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda korrespondent hisob raqamlarini ahamiyati va ularni ochish tartibi. Valyuta hisob raqamlarini ochish tartibi va ulardan foydalanish rejimi. Valyuta operatsiyalari va valyutaviy cheklashlar. Valyutaviy cheklashlar, uning mohiyati, turlari, sabablari va oqibatlari. Valyutaviy arbitraj operatsiyalari. Valyutaviy inqirozlarning valyuta operatsiyalariga ta'siri. O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarni o'tkazishdagi muammolar va uni bartaraf qilish yo'llari.

Muddatli valyuta operatsiyalari va ularning turlari

"Muddatli valyuta operatsiyalari" tushunchasining mazmuni. "Muddatli valyuta operatsiyalari" ing asosiy turlari, ularning yuzaga kelishi sabablari, maqsadi. "Forvard", "Svop" operatsiyalari va "Opsion" bilan operatsiyalar. Valyuta va foizlar bilan "Svop" operatsiyalari. Ularni o'tkazishdagi jahon amaliyoti.

Tijorat banklarining "Muddatli valyuta operatsiyalari"ni amalga oshirish zarurati. Markaziy bankning "Gold Svop" va "Svop" operatsiyalari. O'zbekistonda "Muddatli valyuta operatsiyalari"ni amalga oshirish istiqbollari. Muddatli valyuta operatsiyalariniamalga oshirish bilan bog'liq risklar va ularni boshqarish.

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari va ularning bankbalansiga ta'siri

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari:

- *eksport va importni kreditlash bilan bog'liq valyuta operatsiyalari. Jahon amaliyoti va Tashqi Iqtisodiy Faoliyat banki amaliyoti;*
- *xalqaro forfeyting va faktoring operatsiyalari, ularni o'tkazish bilan bog'liq risklar va ularni bajarilishi;*
- *valyuta qiymatliklari bilan amalga oshiradigan operatsiyalar.*

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalariga Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan normativlar va cheklovlar: valyuta pozitsiyalari. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalarining bank balansiga ta'siri. O'zbekistonda tijorat banklari valyuta operatsiyalarini rivojlantirish istiqbollari.

Valyuta riski va ularni boshqarish

Valyuta riski tushunchasi mazmuni. Valyuta risklarining kelib chiqish sabablari, uning asosiy turlari: iqtisodiy faoliyat natijasida, bitim tuzishda va hisob qilishda yuzaga kelgan risklar va ularni aniqlash yo'llari.

Valyuta risklarini sug'urtalash usullari. Valyutaviy kelishuvlar. Valyuta risklari darajasini kamaytirish bilan bog'liq valyuta operatsiyalar. "Xedjirlash" va sug'urtalash. *Tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini amalga oshirganda valyuta risklarini hisobga olish, uni hisoblash va tahlil qilish usullari.*

Valyuta operatsiyalarida valyuta kursining o'rni

Valyuta operatsiyalarida valyuta kursining o'rni. Erkin suzib yuruvchi kurslar. Qat'iy belgilangan kurslar: oltin standartlar. Boshqariladigan kurslar. Qat'iy belgilangan kurslar va moslanuvchan kurslarni taqqoslash. Valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillar. Valyuta kursi va uni katirovkalash masalalari. Xalqaro savdodagi o'zgarishlar va valyuta kursi. Valyutaning xarid qobiliyati pariteti. Valyuta tizimining rivojlanish bosqichlarida valyuta kursi. Valyuta kursiga doir nazariyalar va XX asrning yirik iqtisodchilarining qarashlari. Foizlardagi farqlarning valyuta kursiga ta'siri. Hukumatning valyuta kursiga aralashuvi va valyuta kursi. Siyosiy omillarning valyuta kursiga ta'siri. Valyuta kursi va maqroiqtisodiy barqarorlik. *Valyuta kursi va uning barqarorligini ta'minlash yo'llari. Valyutaviy cheklashlarning valyuta kursiga ta'siri.* Markaziy bank siyosatining valyuta kursiga ta'siri. Valyuta kursi bilan to'lov balansining ahvoli o'rtasidagi ikki yoqlama aloqadorlik.

Spot va forvard valyuta kurslari va ularning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar.

Xalqaro munsabatlarda hisob-kitoblar va ularni tashkil qilish muammolari

Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishning umumjahon tartibi. Xalqaro hisob-kitob shakllari va uning tavsifi. Hujjatlashtirilmaydigan to'lovlar. Hujjatlashtiriladigan to'lovlar. SVIFT tizimi orqali xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish. Xalqaro hisob-kitoblarda korrespondentmunosabatlarning ahamiyati. Xalqaro hisob-kitoblarda qo'llanadigan moliyaviy-transport hujjatlar. Valyuta cheklovlarining xalqaro hisob-kitoblarga ta'siri. *O'zbekistonda xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish asoslari va uni rivojlantirish istiqbollari.*

Xalqaro hisob-kitoblarda bank o'tkazmasi va akkreditiv hisob-kitob shakllaridan foydalanish

To'lov topshiriqnomalari: ularning kamchiliklari va afzalliklari. Hujjatlashtirilgan akkreditiv: mohiyati, hujjat aylanishi, turlari -o'tkazma, qayta tiklanadigan, tasdiqlangan va tasdiqlanmagan, muddati o'zgartirilgan va boshqalar. *Akkreditivning to'lovchi va oluvchi uchun: afzalliklari va kamchiliklari.* Hujjatlashtirilgan akkreditivda vekseldan foydalanish. *O'zbekistonda akkreditiv hisob-kitob shaklidan foydalanishda mijoz uchun qulay va noqulay tomonlari.*

Xalqaro hisob-kitoblarda bank cheklari va inkasso hisob-kitob shakllaridan foydalanish

Cheklar va uning turlari. O'zbekistonda fizik va yuridik shaxslar tomonidan xalqaro hisob-kitoblarda cheklardan foydalanish istiqbollari. Cheklarning to'lovchi va oluvchi uchun: afzalliklari va kamchiliklari.

Inkasso mohiyati, ahamiyati va uning turlari. Sof inkasso va hujjatli inkasso. Hujjatli inkassoning to'lovchi va oluvchi uchun: afzalliklari va kamchiliklari. *O'zbekistonda inkasso shaklidan keng qamrovli foydalanish muammolari va uni qo'llashni rivojlantirish istiqbollari.*

Xalqaro hisob-kitoblarda kredit qurollari, xususan veksel va kredit kartochkalaridan foydalanishni rivojlantirish istiqbollari

Veksel plastik kredit kartochkalarining mohiyati, ahamiyati va ularning turlari. *O'zbekistonda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan xalqaro hisob-kitoblarda veksel va kredit kartochkalaridan keng qamrovli foydalanish muammolari va foydalanishni qo'llash istiqbollari.* Veksel va kredit kartochkalaridan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari.

3. AMALIY MASHG'ULOTLARNING NAMUNAVIY MAVZUSI

Xalqaro valyuta va hisob operatsiyalari fanining mohiyati, maqsadi va vazifalari

Fanning predmeti. Uning boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqadorligi. Fanning o'rganish uslublari va ahamiyati.

Valyuta operatsiyalari va ularning turlari

"Valyuta operatsiyalari"ning asosiy turlari. "Spot" va "Muddatli" operatsiyalar. Mukofot va chegirmalar. Ularni hisoblash tartibi. "Svop", "Autrayt", "Fyuchers", "Forward" va "Opcion" bilan operatsiyalar*. Uzun va qisqa pozitsiyalar.

Markaziy bankning valyuta operatsiyalari. Valyuta operatsiyalari va valyutaviy cheklashlar. Valyutaviy cheklashlar, uning mohiyati, turlari, sabablari va oqibatlari*. Valyutaviy arbitraj operatsiyalari.

Muddatli valyuta operatsiyalari va ularning turlari

"Muddatli valyuta operatsiyalari" tushunchasining mazmuni. "Muddatli valyuta operatsiyalari" ning asosiy turlari, ularning yuzaga kelish sabablari, maqsadi. "Forward", "Svop" operatsiyalari va "Opcion" bilan operatsiyalar. Valyuta va foizlar bilan "Svop" operatsiyalari.

Tijorat banklarining "Muddatli valyuta operatsiyalari" ni amalga oshirish zarurati. Markaziy bankning "Gold Svop" va "Svop" operatsiyalari*. O'zbekistonda "Muddatli valyuta operatsiyalari"ni amalga oshirish istiqbollari. Situatsion masala echish.

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari va ularning bankbalansiga ta'siri

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari:

- eksport va importni kreditlash bilan bog'liq valyuta operatsiyalari;
- xalqaro forfeyting va faktoring operatsiyalari;
- valyuta qiymatliklari bilan amalga oshiradigan operatsiyalar. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalariga Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan normativlar va cheklovlar: valyuta pozitsiyalari*. Situatsion masalalar echish.

Valyuta xavf-xatarlari

"Valyuta xavf-xatarlari" va uning asosiy turlari: iqtisodiy faoliyat natijasida, bitim tuzishda va hisob qilishda yuzaga kelgan xavf-xatarlar.

"Valyuta xavf-xatari"ni sug'urtalash usullari*. Valyutaviy kelishuvlar. "Valyuta xavf-xatarlari" darajasini kamaytirish bilan bog'liq valyuta operatsiyalar. "Xedjirlash" tushunchasi. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini amalga oshirganda "valyuta xavf-xatarlari"ni hisobga olish, uni hisoblash va tahlil qilish usullari. Ish uyini va uning muxokamasi.

Valyuta kursi

"Valyuta kursi"ning mazmuni va ahamiyati. Boshqariladigan kurslar. Valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillar. Valyuta kursi va uni katirovkalash. Valyutaning xarid qobiliyati pariteti. Valyuta kursiga doir nazariyalar va XX asrning yirik iqtisodchilarining qarashlari. Foizlardagi farqlarning valyuta kursiga ta'siri. Hukumatning valyuta kursiga aralashuvi va valyuta kursi. Valyuta kursi va makroiqtisodiy barqarorlik*. Valyuta kursi va uning barqarorligini ta'minlash yo'llari. Situatsion masalalar echish.

Xalqaro hisob-kitoblar

Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish asoslari. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi. Xalqaro hisob-kitob shakllari va uning turkumlanishi. Hujjatlashtirilmaydigan.

to'lovlar. Hujjatlashtiriladigan to'lovlar. SVIFT tizimi orqali xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish*. Ish uyini.

Xalqaro hisob-kitoblarda bank o'tkazmasi va akkreditiv hisob-kitob shakllaridan foydalanish

To'lov topshiriqnomalari: ularning kamchiliklari va afzalliklari*. Hujjatlashtirilgan akkreditiv: mohiyati, hujjat aylanishi, turlari - o'tkazma, qayta tiklanadigan, tasdiqlangan va tasdiqlanmagan, muddati o'zgartirilgan va boshqalar. Akkreditivning to'lovchi va oluvchi uchun: afzalliklari va kamchiliklari. Hujjatlashtirilgan akkreditivda vekseldan foydalanish.

Xalqaro hisob-kitoblarda bank cheklari va inkasso hisob-kitobshakllaridan foydalanish

Cheklar va uning turlari. O'zbekistonda fizik va yuridik shaxslar tomonidan xalqaro hisob-kitoblarda cheklardan foydalanish istiqbollari*. Cheklarning to'lovchi va oluvchi uchun: afzalliklari va kamchiliklari.

Inkasso mohiyati, ahamiyati va uning turlari. Sof inkasso va hujjatli inkasso. Hujjatli inkassoning to'lovchi va oluvchi uchun: afzalliklari va kamchiliklari. O'zbekistonda inkasso shaklidan keng qamrovli foydalanish muammolari va uni qo'llashni rivojlantirish istiqbollari.

Xalqaro hisob-kitoblarda kredit qurollari, xususan veksel va kredit kartochkalaridan foydalanishni rivojlantirish istiqbollari

Veksel plastik kredit kartochkalarning mohiyati, ahamiyati va ularning turlari. O'zbekistonda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan xalqaro hisob-kitoblarda veksel va kredit kartochkalardan keng qamrovli foydalanish muammolari va foydalanishni qo'llash istiqbollari*. Veksel va kredit kartochkalardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari. situatsion masalalar echish.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI: INFORMATSION-TEXNIK VOSITALAR

Internet saytlari: www.bizbook.ru, www.chtivo.ru.

Audio-video jihozlar. - Mavzuga bag'ishlangan video kassetalar.

Kodoskop orqali ko'rsatiladigan slaydlar:

- Muddatli valyuta operatsiyalari va ularning turlari mavzusi bo'yicha 2 ta sayt;
- Valyuta kursi va unga ta'sir etuvchi omillar mavzusi bo'yicha 1 ta slayd;
- Xalqaro hisob-kitoblarda bank o'tkazmasi va akkreditiv hisob-kitob shakllaridan foydalanish mavzusi bo'yicha 3 ta sayt;
- Xalqaro hisob-kitoblarda bank cheklari va inkasso hisob-kitob shakllaridan foydalanish mavzusi bo'yicha 2 ta sayt.

5. O'ZLASHTIRISHNING NAZORATI

Fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirishlarini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB) - 35%;
- oraliq baholash (OB) - 35%;
- yakuniy baholash (YaB) - 30%.

JB va OB turlar va belgilangan ballar miqdori (o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning) 70%, yakuniy baholash esa 30% miqdorida belgilanadi.

Fan bo'yicha dastur to'la o'tilgandan keyin YaBda tinglovchi "yozma ish" usulida (o'quv rejasiga ko'ra) o'tkaziladi.

Tayanch tushunchalariga asoslangan (yozma ish) usulini o'tkazish tartibi "Reyting tuzishning yakuniy baholash bosqichida" "Yozma ish" usulini tadbiq etish bo'yicha Namunaviy nizom bilan belgilanadi. Semestr o'quv yili davomida o'qitilgan fan bo'yicha maksimal, 55 va undan yuqori foizni to'plagan talaba qoniqarli o'qiyotgan deb hisoblanadi. Fan bo'yicha maksimal ballning 55% idan kam ball to'plagan talaba qoniqarsiz o'qiyotgan (qarzdor) deb hisoblanadi.

Semestr davomida fan bo'yicha to'plangan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86 - 100 - "a'lo" - 130,7 - 152,0 ball;
- 71 - 85 - "yaxshi" - 107,9 - 129,2 ball;
- 55 - 70 - "qoniqarli" - 83,6 - 106,4 ball.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun. 1996.
2. O'zbekiston Respublikasi "Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni. 1996.
3. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida valyutani muvofiqlashtirish to'g'risida"gi Qonuni. 1993.
4. "Valyutani muvofiqlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar" 2-nashr 1998.
5. O'zbekiston respublikasi prezidentining farmonlari 1995 y 5 yanvardan 2001 yil 1 yanvargacha. - T.: Adolat, 2000.
6. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.: O'zbekiston, 1996.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. - T.: O'zbekiston, 1997.
8. Balabanov I.T. Valyutniy rinoк i valyutnie operatsii v Rossii. - M., 1997.
9. Bankovskoe delo: Upravlenie i texnologiya: Ucheb. posobie dlya VUZov. Pod red. prof. A.N. Tovasheva. - M.: Yuniti-Dana, 2001.
10. Banki i bankovskoe delo / Pod.red. I.T. Balabanova - S-Pb.: Piter, 2001.
11. Bratko A.G. Bankovskoe pravo: Teoriya i praktika -M.: PRIOR, 2000.
12. Vahobov A.V., Jumaev N.X., Burxanov U.A. Xalqaro valyuta munosabatlari. - T.: Do'stlik, Sharq, 2003.
13. Denejno-kreditnoe regulirovanie: opit razvivayushchixsya stran. - M., 1997.
14. Djarbekov S.M. Posrednicheskie operatsii.- M., 1997.
15. Dengi, kredit, Banki. Tsennie bumagi. Praktikum: Ucheb. posobie dlya vuzov - Pod red. E.F. Jukova. - M.: YuNITI-DANA, 2001.
16. Ivanov D.L. Valyuta, valyuta, valyuta. -M., 1998.
17. Ivanov V.V. Valyutniy kurs. -M.: INFRA-M, 2001.
18. Iminov O.K. Kreditniy mexanizm sovremennix usloviyax. Monografiya. - T.: TGEU, 2000.
19. Iqtisodiy yo'nalishlar choraklik nashr. O'zbekiston. Aprel-iyun. 2001 yil.
20. Kazimogomedov A.A., Ilyasov S.M. Organizatsiya denejno-kreditnogo regulirovaniya. - M.: Finansi i statistika, 2001.
21. Kochegarova I.V. Operatsii s nalichnoy valyutoy kommercheskix bankov. - M.: FiS, 2001.
22. Krasavina L.N. Mejdunarodnie raschetnie otnosheniya. - M.: FiS, 1998.
23. Krasavina L.N. Mejdunarodnie valyutnie kreditnie i finansovieotnosheniya. - M.: FiS, 2001.
24. Kassel M.A. Mejdunarodnie finansovie otnosheniya. - M.: FiS, 2001.
25. Menvill I., Xerris. Mejdunarodnie finansi. - M.: INFRA-M, 2000.
26. Pavlov S. Valyutniy rnoк. - M.: FiS, 2001.
27. Rubtsov V.B. Zarubejniy fondoviy rinoк. - M.: FiS, 2000.
28. Savchuk V.P. Primekko S.I. Velichko E.G. Analiz, razborka investitsionnix proektov: Ucheb. pos. -Kiev: Elga, 1999.
29. Stoyanova E.S. i dr. Upravlenie oborotnim kapitalom. - M.: VO Perspektiva, 1998.
30. Unifitsirovanie pravila po akkreditivu. 1999.

31. Unifitsirovannie pravila po inkasso. 2000.
32. Fedorov B. Mejdunarodnie finansovie valyutnie kreditnie rinki. M. 1996.
33. Sheri de Kovin. Strategiya xedjirovaniya. -M., 1998.
34. Sheremet A.D. Finansovi analiz v kommercheskom banke. - M.: Finansi i statistika, 2000.
35. Internet saytlari:
 - www.banking.com/aba - Amerika banklari assotsiatsiyasi.
 - www.state.ct.us/dob - konnektikut banklari va kredit birlashmalari, kredit muassasalari va qo'riqlash sanoatini boshqaradi.
 - www.arraydev.com/commerce/JIBC - internet banking va kommertsiya jurnali.
 - www.bankingtech.com - bank texnologiyalari.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Karimov F. Valyutnie operatsii kommercheskix bankov. - T.: 1998.
2. Kempbell, Makonell, Stenli, L.Bryu. Ekonomiks, - M., 1997.
3. Redxod K., Xyus S. Upravlenie finansovimi rinkami. - M. 1998.
4. Rid E., Koster. Kommercheskie banki. -M. 1997.
5. Spitsin I. Marketing v banke. - M., 1997.
6. Faminskiy I.P. Osnovi vneshneekonomicheskix znaniy. - M., 1997.
7. "Mirovaya ekonomika" jurnalining 2001-2003 yillardagi sonlari.
8. "Bozor, pul va kredit" jurnalining 2001-2003 yillardagi sonlari.
9. "Ekonomicheskij vestnik Uzbekistana" jurnalining 2001-2003 yillardagi sonlari.
10. "Bank axborotnomasi" gazetasining 2002-2003 yillardagi sonlari.